

ZULFIYA QUROLBOY QIZINING “OYIMTILLA” ROMANIDA NILUFAR OBRAZI RUHIYATI TAHLILI

Sadullayeva Darmonjon,
Urganch davlat universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18099032>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Oyimtilla” romanidagi Nilufar obrazi ruhiyati psixologik metod asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qahramonning bolalik davridan boshlab hayotda duch kelgan ruhiy zarbalari, oilaviy muammolar, ijtimoiy muhit va mansabga intilish jarayonida yuzaga kelgan ichki o‘zgarishlar izchil yoritiladi. Nilufar obrazining psixologik evolyutsiyasi ichki monolog, bilvosita psixologizm, portret va metaforalar orqali ochib berilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Nilufar obrazi dinamik psixologik tip sifatida talqin qilinib, adibaning inson ruhiyati tasviridagi badiiy mahorati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: psixologik tahlil, badiiy psixologizm, ayol obrazi, ichki monolog, mansab.

Аннотация: В данной статье проводится психологический анализ образа Нилуфар в романе Зульфии Куролбой «Ойимтилла» с использованием психологического метода. В исследовании последовательно рассматриваются детские годы героини, психологические травмы, с которыми она столкнулась в жизни, семейные проблемы, социальное окружение и внутренние изменения, возникающие в процессе стремления к карьерным успехам. Психологическая эволюция образа Нилуфар раскрывается через внутренний монолог, косвенный психологизм, портрет и метафоры. В результате исследования Нилуфар интерпретируется как динамический психологический тип, что демонстрирует художественное мастерство автора в изображении человеческой психики.

Ключевые слова: психологический анализ, художественный психологизм, женский образ, внутренний монолог, карьера.

Annotation: This article analyzes the psychology of Nilufar, a character in Zulfiya Qurolboy’s novel *Oyimtilla*, using a psychological approach. The study consistently examines the heroine’s childhood experiences, the psychological shocks she encountered in life, family issues, social environment, and internal changes arising during her career aspirations. Nilufar’s psychological evolution is analyzed through internal monologue, indirect psychologism, portraiture, and metaphors. As a result, the study interprets Nilufar as a dynamic psychological type, revealing the author’s artistic mastery in depicting the human psyche.

Keywords: psychological analysis, artistic psychologism, female character, internal monologue, career.

Kirish. Badiiy asarlarda qahramon ruhiyati masalasi kitobxon uchun estetik zavq berish, unga chuqurroq ta’sir qilish, qahramon ichki holatini to’liq ifoda etish uchun muhim vosita hisoblanadi. Badiiy asar bevosita hayotning in’ikosi ekanligini inobatga olsak, atrofimizdagi insonlarning ruhiyati badiiy adabiyotga ko‘chishi va ana shu ruhiyatdagi evrilishlarni tahlil qilish adabiyotshunosligimizda dolzarbligicha qoladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ayollarning yuqori lavozimlarda ishlashga bo‘lgan ishtiyoqi oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Garchi bu yo‘l ayollar uchun mashaqqatli bo‘lsa-da, moddiy va mansab ehtiyoji sababli ular bu qiyinchiliklarga ko‘z yumishmoqda. Zulfiya Qurolboy qizining “Oyimtilla” romanida ham Nilufarning yuqori

mansab egallashga bo'lgan ishtiyoqi, unga erishishgacha boshidan o'tkazgan qiyinchilik va iztiroblari, har qanday vaziyatda ham ayol ruhiyatining badiiy ifodasi aks ettirilgan.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida obrazlar ruhiyatini psixologik metodda tahlil qilish masalasi Dilmurad Quronovning "Ruhiy dunyo tahlili", Yulduz Eshmatovaning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini", Dilafuz Abdullaevaning "Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi" kabi qator tadqiqotlarda badiiy psixologizm masalasi o'rganilgan. Xususan, Y.Eshmatova ruhiyat masalasining badiiy asardagi o'rni haqida to'xtalib, shunday fikr bildiradi: "Inson ruhiyatining chuqur tahlili, uning ong osti, yashirin sir-sinoatlarini yanada mukammal tushunish va tasvirlash doimo eng qadimgi davrlardan boshlab adabiyotning asosiy muammosi bo'lib kelgan. Shu bois badiiy asarda inson ruhiyatining chuqur va batafsil tahlilini adabiyotning sifat belgisini ko'rsatuvchi xususiyat deyish mumkin." [1.75] Shu nuqtayi nazardan adabiyotshunosligimizda obrazlar ruhiyatini chuqur tadqiq qilish muhimdir. Zulfiya Qurolboy qizining "Oyimtilla" romani bo'yicha ayrim maqolalarda mavzu va obrazlar umumiy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, Nilufar obrazi ruhiyati psixologik metod asosida maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida psixologik tahlil metodi asosiy metod sifatida qo'llanildi. Shuningdek, badiiy matn tahlili, kuzatish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Zulfiya Qurolboy qizining "Oyimtilla" romani tanlandi. Qahramon ruhiy holati ichki monolog, bilvosita psixologizm, portret va metaforalar orqali tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Dastlab adibaning Nilufar obrazi portretini yaratganiga to'xtalsak, qiz yoshligidan go'zal, tortinchoq, ammo arazlab qolsa, haftalab onasiga gapirmay yurardi. Aynan shu paytlarda Mehri opoqi qizining ammasiga o'xshab borayotganini ta'kidlar va boshqa farzandlaridan ko'ra ko'proq Nilufarni tergap turardi. Nilufarning ismini ammasi qo'ygan va unga o'xshashini bashorat qilgan. Roman davomida ushbu bashoratning qanchalik o'rinli ekanligini anglab olamiz.

Nilufar otadan erta yetim qolgani sababli yaxshi joydan kelgan sovchiga onasi darrov rozi bo'ldi. O'sha paytda u atigi 17 yosh edi. Qizning qalbida orzulari mo'l edi. Institutda o'qishni xohlardi. Ammo onaning istagi qizning orzularidan ustun keldi. Qaynonaning, qayni opalarning munosabati, bu ham yetmagandek ayolning befarzandligi ajrashishgacha olib bordi. Tug'maganini yuziga solishganda Nilufar ich-ichidan ezilardi. "Shunday kezlarda Nilufarning yuragi chok-chokidan so'kilib, suv kabi oqib ketayotganday bo'lardi." [2.41] Ota uyiga qaytgan Nilufar endi bu uyda o'zini begona va baxtsiz his qilardi. Shunday kunlarning birida unga o'ziga to'q oilaning kenja farzandi – Mirvosil sovchi qo'yadi. Yana onaning qistovi va majburlashi, xolasining Nilufarni boshiga baxt qushi qo'nganini tinmasdan aytaverishidan yigit bilan uchrashib ko'rishga rozilik beradi. Zamira xola uni uchrashuv kuni go'zallik saloniga olib boradi va yigit bilan

uchrashtiradi. Yoshi 35larga borib qolgan, ochiq yuzli, inomarka haydab kelgan yigit Nilufarda yaxshi taassurot qoldirdi. “O‘qimagan, oddiy bir ayol bo‘laturib Mirvosilday ishbilarmon, tadbirkor odamning e‘tiborini tortganidan o‘zida yo‘q suyundi, ilk marta o‘zini dunyodagi yagona go‘zal ayolday his qilib ichida g‘urur tuydi. “Mening butun boyligim, qadr-qimmatim mana shu go‘zalligim bo‘lsa kerak”, degan g‘alati bir o‘y o‘tdi xayolidan ko‘zgu oldida turganida. Bularning bari juvonning bir qarorga kelishi uchun yaxshigina turtki bo‘ldi”[2.63] Nilufar bu safar baxtli bo‘laman, hashamatli uyda yashayman, armonim bo‘lmaydi deb o‘ylardi. Ammo ayolning bu turmushi ham ajrashish bilan tugaydi. Bu turmushning uzoq muddat muhabbat bilan davom etmasligi aniq edi. Sababi turmush yolg‘on bilan boshlandi. Mirvosil rahmatli xotinidan faqatgina 1 nafar qizi borligi, u ham bo‘lsa qaynonasining yonida ekanligini aytgandi. Ammo haqiqat boshqacha bo‘lib chiqdi. “Oradan qancha vaqt o‘tganiga qaramay, o‘sha daqiqadan bugungi kunda Nilufarning xotirasida qolgani, mehrga to‘la issiq qalbiga muzday bir narsa o‘rmalab kirgani bo‘ldi: aldashibdi!”[2.94] Balki vaqtida haqiqatni aytishganida ayol bu darajadagi ruhiy zarbani qabul qilmasmidi... Axir, birdaniga 3ta bolaga onalik qilish, ularni ko‘nglini olish Nilufar uchun oson bo‘lmaydi. Ayniqsa, katta farzandlarning Nilufarning ishlaridan ayb topishi, uni o‘z onasidek ko‘rmasligi, Nilufarni o‘z onasidek ko‘ra boshlagan Mirvalini ayoldan uzoqlashtirishga harakat qilishlari, bu ham yetmagandek erining “Chidasang shu” degan gapi ayol uchun og‘ir edi. Mirvosilning ham ishlari orqaga ketib qolishi, Nilufar bog‘lanib qolgan bolakay – Mirvalining vafoti ayolni yana o‘zga begona bo‘lgan uy – ota uyi tomon yetakladi. “Mirvosilning uyidan chiqarkan, qanchalik aftoda va qayg‘uli holda bo‘lmasin, o‘zicha bir qarorga kelib qo‘ygandi. Endi hech qachon baxtning ortidan quvmaydi. Baxtli bo‘lishga ham harakat qilmaydi.”[2.112] Chunki ayolning ikki turmushi ham baxtli yakun bilan tugamadi, turmush ortog‘i bilan uzoq muddat baxtli va farovon hayot kechirmadi. Bir paytlari qalbida tug‘ilgan umidlari sarobga aylandi. Uyiga qaytgach onasi ham unga xushlamay munosabat ko‘rsata boshladi. Ovqatni ko‘p yesa semirishi, keyin unga hech kim qayrilib qaramasligi, uyda yotavermasdan hovlidagi ishlarni qilishini tinmay ta‘kidlar, Nilufar nima qilsa ham onasiga yoqmas, o‘z qizini chaqib olardi. Mehri opoqi qizining ham bu gaplarga gap bilan javob qaytarishini kutardi. Ammo Nilufar onasiga miq etmasdi. “Faqat ko‘zyoshlari tomog‘iga kelib tiqilar, yig‘i bilan to‘kilmagan tomchilar, aytilmagan so‘zlar yurakda yig‘ilib, go‘yo qotib qolardi...”[2.118] Mana shunday munosabat, ayolning dardini ichiga yutishi, ko‘ngliga hamdard kimsaning topilmaganligi Nilufarni asta-asta o‘zgartirib boradi va asar oxirida ushbu obrazni o‘zgacha talqinda gavdallantiradi.

Keyinchalik Nilufar adabiyot muallimasi – Gulasal opaning ko‘magi bilan mahallada ishlay boshlaydi. Tili biyron, qo‘l-oyog‘i chaqqon, hamma ishlarni o‘zi bilib-bilib qiladigan Nilufar Gulasal opaga yaxshi yordamchi bo‘ldi. Oylik maoshi ham oydan oyga o‘sib bordi. Shu vaqtgacha o‘zini baxtsiz sanab yurgan Nilufarning qalbida talay

maqsadlar, orzu-istaklar uyg'ondi. Hayotda endi o'z yo'lini to'g'ri tanlaganligiga, nima bo'lganda ham ishi uchun harakat qilishi kerakligiga ishonch hosil qildi. "Shu vatgacha u shunchaki mavjud edi, boshqa ayollar kabi, mana endi qayta tug'ildi. Kim bilsin, qayta emas, balki birinchi marta tug'ilgandir!"[2.125] Chunki ayolning shu paytgacha ko'ngliga qaralmagandi, orzulariga, xohishlariga hech kim qiziqmagandi. Yosh bo'lishiga qaramay roziligisiz turmushga berishdi, o'qishi uchun sharoit yaratib berishmadi. Ammo hozir Nilufar o'zi xohlagan narsalarni qila olar, kuni bo'yi o'z ustida ishlab, bilim va malakasini oshirar, o'z orzulari tomon qo'rqmasdan qadam tashlay oladigan darajada dadil edi. Turli xil odamlarning taqdiri, qiyofalarini ko'rish Nilufarning hayotga ko'zini yanada kattaroq ochib qarashga majbur etdi. Bu orada Nilufar sirtqi ta'limga ham o'qishga kirdi. Yangi ishga joylashgach, bu yerda ham chaqqonligi, tiriqshqoqligi tufayli boshqalarning nazariga tusha boshladi. Vaqt o'tgan sayin ayolning xarakterida o'zgarishlar kuzatila boshladi: "Uni bir vaqtlar kamtar va jur'atsiz ko'rsatadigan tortinchoqligi yo'qoldi. Ayollik tabiatining allaqaysi puchmoqlarida bekinib yotgan noz-karashma, nazokat va tamannoliklar manaman deb yuzaga chiqa boshladi".[2.143] Iloji boricha so'nggi modada kiyinishga harakat qilar edi. Turkiyalik professor Nevzat Tarxan "Ayol psixologiyasi" nomli kitobida ta'kidlaganidek, "ayol uydan qanchalik uzoqlashsa, u shunchalik zamonaviylashadi".[3.203] Ya'ni Nilufarning o'z uyida o'zini begonadek his qilishi sababli ko'proq vaqtini ishiga sarflashi, unga biror vazifa topshirilsa, uni bajarish uchun astoydil harakat qilishi, yangi fikr va g'oyalari orqali boshqalarning tahsiniga sazovor bo'lishi ayolning jamiyatdagi rolini kuchaytira bordi. Shu sababdan nafaqat ayolning kiyinishi zamonaviylashdi, bu zamonaviylashish uning ichki dunyosiga, xarakteriga va fikrlashiga ham ta'sir ko'rsata borganini roman mutolaasida ko'rib boramiz va psixolog Nevzat Tarxanning fikrlari o'rinli ekanini anglaymiz.

O'zgarish nafaqat Nilufarning hayotida, balki qalbida ham kecha boshladi. Oldinlari hashamatli hayotning, bashang kiyimlarni yoqtirmaydigan ayol endi qimmatbaho narsalarga o'chlikni seza boshladi, uning tashqi qiyofasida o'ziga bo'lgan sevgisi akslana boshladi. Bu esa erkaklarning e'tiboridan chetda qolmadi. Endi Nilufarni ko'nglini olish uchun harakat qiladigan erkaklar ko'paya boshladi. Garchi ayol qalbining bir chetida hadiksirash, qo'rquv bo'lsa-da, Jalolbekning ko'zlarida o'zgacha tuyg'uning mujassamligi uni qalbini, fikrini o'zgartirdi. "Oldinda kutayotgan baxtli hayot boshidan kechgan qiyinchiliklarni yuvib ketadiganday, saodatga eltadiganday tuyulganidan ortiq bu haqda o'ylagisi kelmadi. Axir har doim ham osmonni bulut qoplab yotmas, gulduraklar abadiy bo'lmas, yomg'irlar ham bir kun tinar va osmonda kamalaklar jilva qiladign kun kelar"[2.172] Adiba qahramon ruhiyatiga tabiat tasvirini qo'shish orqali inson hayotida qorong'u kunlar ortidan yorug' kunlar kelishini, Nilufarni ham mana shunday kelajak kutayotganligini bashorat qiladi. Ammo bu baxt ham ayol kutganchalik boqiy bo'lmadi. To'g'ri, dastlabki vaqtda Jalolbek va Nilufar muhabbat og'ushida sarmast, hayot

tashvishlaridan holi, xuddi oldin hech kimga ko'ngil qo'yishmagan-u, endi haqiqiy sevgisini uchratgandek edilar. Nilufarning noz-u karashmalari, mehribonligi erkakka xush yoqar, uning yonidan ketgisi kelmas, ayolga barcha xohlagan narsalarini muhayyo qilishga tayyor jonkuyar edi.

Endi ayolning mashinasi, uyi ishi va eri bor, bu narsalardan u juda xursand edi. Jalolbekning yordami bilan u nufuzli joyga ishga kirdi. Boshliq – Hamida Hamidovnaning yordamchisiga va vaqt o'tishi bilan eng yaqin sirdoshiga aylandi. Deyarli har kuni tadbir-u bazmlarsiz o'tmaydigan bo'lib qoldi. “Unda ilg'or zamonaviy ayollarga xos viqor va shukuh paydo bo'lgandi. Endi u har bir tadbir yoki ziyofat uchun alohida kiyim tiktirma uyaladigan bo'lib qolgandi... Fe'l atvorida qandaydir keskinlik paydo bo'lgandi. Gapirishlari ham boshqacha bo'lib borayotgandi.”[2.209] Bu obrazning ijtimoiylashuvi, ya'ni tashqi muhit ta'siri ostida jamiyat hayotidagi tajribalarini o'zlashtirishi va o'z hayotiga tatbiq etganligini ko'rsatadi. Ayolda viqorning paydo bo'lishi o'ziga ishonchi va o'zini qadrlash hissi ortganligidan kelib chiqadigan fazilat. Bu esa obrazda ichki mustaqillik, o'zini anglash hissi shakllanayotganini ko'rsatadi va adiba Nilufarning dinamik obraz sifatida tasvirlaydi.

Rashk ayollik tabiatiga xos xislat. Nilufar ham suyuklisi – Jalolbekni rafiqasi bilan ko'rgan paytida qalbini mana shu tuyg'uning olovi yondiradi. Bunda obrazning ruhiy holati va adiba mahoratiga diqqatimizni qaratsak: “Vujudi isitma tutganday qaltirar, boshi aylanar edi. O'zini qo'yishga joy topolmay bir zum xona o'rtasida turib qoldi, atrofdagi hamma narsa ko'ziga xunuk, nafratli bo'lib ko'rindi.”[2.211] Keltirilgan parcha qahramon ruhiyatidagi kuchli emotsional larzaning tasviridan iborat bo'lib, unda rashkning psixologik mexanizmlari aniq namoyon bo'ladi. Psixologik metod nuqtai nazaridan rashk — shunchaki hissiyot emas, balki shaxsning ichki qo'rquvlari, xavotirlari va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi bilan chambarchas bog'liq murakkab psixik jarayondir. Parchadagi tasvirlar ushbu jarayonning bosqichma-bosqich kuchayib borishini ko'rsatadi.

Birinchiidan, “vujudi isitma tutganday qaltirar, boshi aylanar edi” tarzidagi tasvir rashkning fiziologik ko'rinishlarini ochib beradi. Demak, qahramonning rashki shunchaki hissiy tusda qolmay, jismoniy iztirob darajasiga yetganini ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, “o'zini qo'yishga joy topolmay bir zum xona o'rtasida turib qoldi” jumlasida qahramonning ruhiy beqarorligini, ichki tartibsizlikni bildiradi. Psixologik metod nuqtai nazaridan bu – affekt holatiga yaqinlashish, fikrlar oqimining beqarorligi va shaxsning o'zini nazorat qila olmay qolishidan darak beradi. Bunday lahzada idrok torayadi, vaziyatni mantiqan baholash qobiliyati sustlashadi va obraz butunlay hissiyotlar hukmiga beriladi.

Uchinchiidan, “atrofdagi hamma narsa ko'ziga xunuk, nafratli bo'lib ko'rindi” degan tasvir rashkning proyeksiya jarayoniga aylangan ko'rinishini ifodalaydi. Proyeksiya psixologiyada shaxsning ichidagi salbiy hissiyotlarni tashqi muhitga ko'chirish, ya'ni

o‘zining ichki iztirobini atrofdagi narsalarda aks ettirish jarayoni sifatida izohlanadi. Qahramonning borliqni “xunuk” deb qabul qilishi – uning ichki azobining tashqi olamga ko‘chirilib ketganidan dalolat beradi. Bu rashkning eng yuqori cho‘qqisida kuzatiladigan tipik psixologik reaksiyadir. Shu tariqa, parcha rashkning bosqichma-bosqich kuchayishi, somatik reaksiyadan boshlanib ruhiy beqarorlik va idrokning buzilishigacha yetishi jarayonini aniq ko‘rsatadi. Psixologik metoddan bu holat qahramon ruhiyatidagi ichki konflikt — sevgi va yo‘qotish qo‘rquvi o‘rtasidagi ziddiyatning natijasi sifatida izohlaydi. Shaxsning emotsional portlash chog‘idagi ichki dunyosi, ruhiy tanglik va hissiyotlarning nazoratdan chiqishi badiiy tasvirning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mana shu rashk ayolning kundoshiga qo‘ng‘iroq qilishi va Jalolbek bilan munosabatlarning uzoqlashishiga sabab bo‘ladi. Ishi tufayli chet elga safarga ketgan Nilufarning boshiga yana bir musibat tushadi. Bir hafta o‘tgach ayol homilasidan ayriladi. Shundan keyin uning ko‘nglida bir o‘y g‘alayon qila boshladi: “Jalolbekni butunlay o‘zingniki qilib ol! Aks holda, butun umring azobda o‘tadi. Shusiz ham uzoqlashish boshlanganini sezmayapsanmi?”[2.249] Bu jummalarda obrazning ruhiy holati ichki monolog orqali ochib beriladi. Ayol o‘ziga buyruq ohangida murojaat qilishi uning qat‘iyatini, bu qat‘iyat esa ayolda erkakka bog‘lanib qolganlik va endi uni yo‘qotishdan qo‘rquvi borligini namoyon qiladi. Bu qo‘rquv esa Nilufarning fikrlarini keskinlashtiradi. “Uzoqlashish boshlanganini sezmayapsanmi?” jumlasida esa garchi savol shaklida berilgan bo‘lsa-da javob talab qilmaydi. Ya‘ni ayol o‘z-o‘zini ayblashi, ichki xavotiri kuchaytirilgan holda ko‘rsatiladi. Mana shu o‘y ayolni yana kundoshiga telefon qilib, Jalolbek allaqachon uniki bo‘lganligi va farzand kutishayotganini aytishiga turtki bo‘ladi. “Juvon nima qilib qo‘yganini xayoliga ham keltirmadi. Bundan afsuslanmadi ham.”[2.250] Oxirgi jumla ayolning istagi qanchalik kuchli va o‘z qarorida sobit ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

“Ayol kundan-kun qat‘iyatli, bardoshli va toshbag‘ir bo‘lib borayotgandi.”[2.286] “Kundan kun” birikmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ibora qahramon xarakteridagi o‘zgarishlarning bir zumda emas, balki uzoq davom etgan ruhiy bosim, hayotiy sinovlar va ichki kurashlar natijasida shakllanganini ko‘rsatadi. Demak, qat‘iyat va bardoshlilik tabiiy xarakter xususiyati emas, balki majburiy ruhiy moslashuv mahsulidir.

“Qat‘iyatli” va “bardoshli” sifatlari ijobiy mazmun kasb etsa-da, ular bilan yonmayon kelgan “toshbag‘ir” so‘zi mazkur ruhiy holatning ikkilamchi, murakkab tabiatini ochib beradi. Toshbag‘irlik bu yerda shafqatsizlik emas, balki qahramonning o‘zini himoyalash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Psixologik metodga xos tarzda muallif qahramonning ichki og‘riqlarini bevosita aytib bermaydi, balki xarakterdagi sovuqlik va hissiy yopilish orqali ifodalaydi. Mazkur jumla ayol obrazining ruhiy evolyutsiyasini ixcham, ammo mazmunan chuqur tarzda ochib beradi. Psixologik metod asosida qahramonning qat‘iyat va bardoshlilik ortida yashiringan ichki og‘riqlari, hissiy yopiqligi

va hayotga moslashish jarayoni badiiy ifoda topgan. Bu esa badiiy matnda shaxs ruhiyatini ochishda ixcham psixologik detallar qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

Jalolbek oilasidan, mansabidan, mavqeidan ajralib, u bilan yashay boshlaganidan so'ng Nilufar bilan munosabatlarida o'zgarish kuzatila boshlaydi. "Juvon sahnadagi rolini o'ynab bo'lib, asl holiga qaytgan aktrisaga o'xshab, butunlay o'zgardi-qoldi." [2.293] Bu qahramon ruhiyatida tub burilish yuz bergani, ayolning eridan soviy boshlagani va bu jarayon kutilmagan vaziyatda birdan sodir bo'lganini ko'rsatadi. Ayol ruhiyatida, xarakterida bunday o'zgarish paydo bo'lishiga sabab bor edi. Uning qalbida yagona istak – kattaroq mansabga erishish, boshlig'i Hamida Hamidovnani o'rnini egallash, o'zining mavqeini jamiyatda mustahkamlash edi. "Axir men endi anoyi yoki sodda-go'l emasman. Qobiliyatimni isbotlashga, o'zimga yo'l ochishga, yanada yuqoriga o'rmalashga kuch-quvvatim ham, imkonim ham yetarli. Shu qilgani uchun hammasiga o'zim erishaman!" [2.229] Ushbu jumlar Nilufarning ruhiy holatidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. U ayolning oldingi holati va bugungi holatini solishtirish hamda bu orqali ayolning o'ziga nisbatan ishonchi, qat'iyat ortganligini ko'rsatadi. Parcha yakunidagi "Hammasiga o'zim erishaman" jumlasida obraz ruhiyatida tashqi yordamga tayanmaslik, kelajak, muvaffaqiyat uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish hissi uyg'onganini ko'rsatadi. Bu esa obraz psixologiyasida ruhiy yetuklik sifatida talqin qilinadi. Ancha oldin obraz ruhiyatida qo'rquv, ikkilanishlar kuzatilgan bo'lsa, bu bosqichda u o'zining hayotiy pozitsiyalarini to'liq anglaydi va o'zi uchun harakat qiladi. "Juvon xuddi och qolgan bo'riday ichida bir ochlik tuydi. Qanoatni yo'qotib, telba qiladigan bir ochlik edi bu!" [2.229] Bu orqali esa adiba obrazning mansabga, yuqori lavozimga ildamlashga xohishi qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatib beradi. "Och qolgan bo'riday" metaforasining keltirilishi ham ayolning ruhiy holatini ochishga ko'maklashadi. Bilamizki, bo'ri asosan to'da bo'lib emas, yolg'iz o'zi ov qiladi. Bu qahramonning yuqorida o'z monologida eslab o'tgani kabi hech kimning yordamiga tayanmasdan, yolg'iz o'zi harakat qilishi holatiga hamohang bo'la oladi. Bundan tashqari bo'riining yovvoyi hayvon ekanligini inobatga olsak, u och paytida qanday qilib bo'lmasin o'z o'ljasini ushlab uchun kuchli harakat qiladi va o'ljasiga erishadi. Bu hayvonning yana bir xususiyati uning bo'ysundirib bo'lmasligidir. Nilufarning xohishi, mansabga bo'lgan o'chligi ham bu davrga kelib bo'ysundirib bo'lmas darajaga ko'tarilayotganini aniqroq ko'rsatish uchun bu bo'ri obrazi mos tushgani orqali adiba mahoratining yuksakligi hamda obraz ruhiyati hayotiy dalillar orqali tasvirlanganini guvohi bo'lamiz.

Mansab xohishi ayolni shu darajada tubanlashtiradiki, u hatto o'ziga ish o'rgatgan suyanchiq bo'lgan ustoz Hamida Hamidovnani biror og'ir dardga yo'liqishi uchun Allohga tavallo qiladi. Xudo unga shunday dard bersaki, o'zi rozi bo'lib chetga surilib qolsa deya o'ylardi. "Juvon o'zini o'ylab opaga yomonlik qilmasdan, oppoq bo'lib qolaverardi. Mabodo opa shu kecha kunduzda biror dardga yo'liqmasa, Nilufar uni qanday

qilib bo‘lmasin yo‘ldan olib tashlaydi.”[2.326] Bu jumalarda ayol o‘z maqsadi yo‘lida naqadar sobit ekanligi, qanday qilib bo‘lmasin o‘z oldida to‘siq bo‘lib turgan ustozini yo‘ldan olib tashlash uchun har narsaga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Ayolning ruhiyati shu qadar o‘zgaradiki, u o‘z maqsadiga erishish uchun unga yaxshilik qilgan insonlarga yomonlik qilishdan ham toymaydi. Bu psixologiyada ayolda shakllangan “men”ning juda yuqori darajasi hisoblanadi.

“Qisqasi, uning g‘ulg‘ulali qalbi xotirjamlikni yo‘qotgan, hayotdan yanada yaxshirog‘ini yulib olishga, yanada yuqoriroqqa chiqishga, yanada yuksakroqqa intilardi.”[2.338] Mazkur parcha Nilufarning ichki ziddiyatlari hamda qoniqmaslik holatini ifodalaydi. Mansab istagi, o‘z ustozini o‘rnini egallash uchun harakatlari uning qalbiga g‘ulg‘ula soladi, ayol o‘zining tinch hayoti, mansabidan xotirjamlik his etmaydi. Yanada yuksakroqqa intilishi ham uning bugungi kumiga shukur qilmasligi, o‘z hayotidan qoniqmayotganini ko‘rsatadi. Insonning nafsi o‘zida qancha yaxshi narsalar mujassam bo‘lmasin, ularga qanoat qilmay, bundan-da yaxshirog‘iga intiladi. Ammo bu intilish har doim ham foyda keltirmaydi. Nilufarning ham o‘zligini yo‘qotishiga, his-tuyg‘ularining yo‘qolishiga sabab bo‘lishini kitobxon roman voqelalari davomida kuzatadi va o‘ziga kerakli xulosa chiqaradi.

Ayol o‘z maqsadiga yetishish uchun Akobir Saydaliyevich bilan orasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shu orqali yuqori lavozimni egallash uchun astoydil harakat qiladi va buni uddalaydi ham. Bir kuni Akobir Saydaliyevich Nilufarga Hamida Hamidovnaning o‘rnini egallashni taklif qilgan paytdagi ayolning ruhiy holati va portretini tahlil qilsak: “Nilufarning ikki yuzi qalampir surilganday lovullab ketdi. Savolga javoban lom-mim demadi. Faqat irinchi o‘rinbosarga minnatdorona nazar bilan boqdiki, odatda, ayollarning bunday qarashi erkaklarning yuragini tilka-pora qilib tashlaydi.”[2.381] Bilvosita psixologizmning yorqin namunasi bo‘lgan ushbu parchada ayolning tashqi holati ruhiy dunyosining anglashga ko‘maklashadi. Garchi u xohlagan narsasiga erishgan bo‘lsa ham ichki xotirjamligini saqlaydi va bu o‘rinda unda makkoralik xislati gavdalanadi. Erkakka biror so‘z demasa ham nigohlari orqali unga chuqur minnatdorchlik bildirishi erkakning unga bolgan qiziqishini orttirishga xizmat qiladi. Shu tariqa Nilufar uzoq kutgan marrasini zabt etadi.

Jamiyatdagi mavqeyi yanada mustahkamlangan ayolning shaxsiy hayotiga ham nazar tashlasak. U oilasiga, hatto o‘z onasiga shu qadar befarq insonga aylanadiki, undan onasining yoshini so‘rashganda birdaniga javob berolmay, o‘ylanib qoladi. Chunki shu vaqtgacha u onasining yoshiga qiziqmagan. “Sirdan butun hatti-xarakati birovlarining oilasini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa-da, uning o‘zi oila ishlaridan begonalashib ketayotgandi. Bola ko‘rish fikri martabaga, obro‘-e‘tiborga, boylikka hirs qo‘ygan ko‘ngilning ko‘chasidan ham o‘tmasdi.”[2.457] Parchada qahramonning ruhiy holati kundalik hatti harakatlari bilan nomuvofiq tarzda keltiriladi. U qanchalik boshqalar uchun

jonkuyarlik qilishi, jamiyatda faol shaxs sifatida gavdalanishi, uning ijtimoiy rolni bajarish zaruratidan kelib chiqadi. Ana shu rol ayolning hayotida muhim o‘rin – bosh planga chiqadi. Natijada ayol o‘z oilasidan uzoqlashadi. Hatto ona bo‘lish baxtini tuyishni xohlamaydigan darajaga yetadi. Chunki ayol farzandli bo‘lsa ishiga, karyerasiga putur yetishi mumkinligini o‘ylagan holda uning ongi bu holatni sodir bo‘lishini xohlamaydi. U martaba yo‘lida erkin va to‘siqsiz bo‘lishni xohlaydi. Bu o‘rinda psixolog Nevzat Tarxanning fikrlarini eslab o‘tishimiz joiz: “Vaqti-vaqti bilan muvaffaqiyatli ishbilarmon ayol bo‘lish uchun oilasini qurbon qiladigan ayollarni uchratish mumkin.”[3.201] Nilufar ham ana shunday oilasini qurbon qilgan ayollar toifasidan edi.

Nilufar muhim ish bilan chet el safariga ketishiga zarurat tug‘iladi. Aksiga olib onasi og‘ir xastalik sababli shifoxonada davollanayotgan paytda Nilufar uni ko‘rishga borganda vafot etadi. Bu jarayonda ayolni iztirobga solgan narsa onasining vafoti emas, aksincha uni ma‘rakalari sababli chet el safariga keta olmay qolishi bo‘ladi. Onasi vafot etgan jarayonida ayolning ruhiy holati quyidagicha ko‘rsatiladi: “O‘zini majburlab bo‘lsayam mijjalarga yosh qalqitishga urindi, ammo yig‘i keladigan joyini birov tortib-tizginlab turganday ko‘zlari namlanmadi.”[2.15] Garchi bu og‘ir judolik bo‘lsa-da, ayolni u qadar chuqur iztirobga solmaydi. Bir soat ichida onasini ko‘mishga tayyorgarlik qilishi va onasi qabrga qo‘yilgach samolyotda safarga jo‘nash uning butun fikr-u xayolini egallaydi. Akasi, singlisi qarshilik qilishiga qaramasdan qisqa muddatda marakalarga tayyorgarlik ko‘radi. Yana bir achinari jihati, ayol o‘ziga do‘kondan qora kiyimlar sotib olayotganda ham qomatiga yopishib turadiga, uni yanada viqorli qilib ko‘rsatadigan kiyimlar sotib oladi. Chunki bu yerga uning katta tanishlari kelishi mumkinligini o‘ylagan holda ularni ko‘ziga nochor ahvolda ko‘rinishni istamaydi. Bu ayolning qalbidagi mehr-shafqat hissi o‘z o‘rnini xudbinlikka bo‘shatib bergani ko‘rsatadi. “Nima, onamiz o‘ldi deb erta-yu kech boshimizni egib o‘tiramizmi? Onamizning bu dunyodagi ishi bitdi. Endi tiriklarni o‘ylashimiz kerak. Ya‘ni o‘zimizni.”[2.472] Jumlasida ham ayolning o‘z “men”ini yuqori darajaga qo‘yishi, undagi xudbinlikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ma‘rakalar o‘tgach u o‘zida erkinlik tuydi. Yangi marralar, yangi orzular sar qadam tashlash ishtiyoqi paydo bo‘ldi. Yana erishganlariga qanoat qilmadi. “Hayotda nimalar kimlargadir ko‘proq nasib qiladi, boshqlarga esa o‘shalardan ortganigina qoladi” deya o‘ylarkan, hamma narsa uniki bo‘lishini, boshqalarga ulush qoldimaslikni o‘ylardi. “Nilufar Asqarovna banogoh piqirlab kulib yubordi... U uzoq kuldi. So‘ng sarmast tarzda odam bo‘yi ko‘zgu qarshisiga o‘tirdi-da, bexato ishlaydigan quroli – o‘ziga kerakli amaldor-vallamatlarni maftun etadigan sirli-istig‘noli tabassumiyu allanimalarni va‘da etadigan g‘amzali nigohlari ta‘sirini yanada, yanada kuchaytirish ustida qunt bilan mashq qilishga kirishdi...”[2.478] Mazkur parcha Nilufar Asqarovnaning ichki psixologik holatini tashqi harakatlar orqali ochib berishga qaratilgan. Qahramonning “banogoh piqirlab kulib yuborishi” va “uzoq kulishi” holati oddiy quvonch ifodasi emas, balki ichki

zo'riqish, o'ziga bo'lgan ishonchning kuchayishi va vaziyat ustidan nazorat hissining namoyonidir. Psixologik nuqtayi nazardan bu kulgi - ichki g'alabaning affektiv belgisi sifatida talqin qilinadi. Keyingi tasvirlarda Nilufarning "sarmast tarzda odam bo'yi ko'zgu qarshisiga o'tirishi" o'z "Men"ini anglash va qayta baholash jarayonini ifodalaydi. Ko'zgu psixologik ramz sifatida qahramonning o'zini tashqi dunyo talablari asosida qayta konstruksiya qilayotganini ko'rsatadi. Bu holat shaxsning ichki mohiyatidan ko'ra, ijtimoiy rolga ustuvor ahamiyat berayotganini anglatadi. Muallif Nilufarning "bexato ishlaydigan quroli" iborasini qo'llash orqali uning psixologik ta'sir mexanizmlarini ongli ravishda boshqarishini ta'kidlaydi. Sirli-istig'noli tabassum va g'amzali nigohlar - qahramon tomonidan puxta o'zlashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan kommunikativ vositalardir. Bu jihat Nilufarning boshqalarni maftun etish qobiliyati tabiiy emas, balki mashq va tajriba natijasi ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizining "Oyimtilla" romanidagi Nilufar obrazi ayollarning bolalikdagi travmalari, yillar davomida ko'rgan qiyinchiliklari, kamsitilishlari, tanqid qilinishlari, jamiyatga aralashishi natijasida psixologiyasida qanday o'zgarishlar kechishini ko'rsatib beradi. Chunonchi, Dilmurod Quronov aytganidek, "Inson xarakteri, uning o'ziga xosligi ko'p jihatdan u yashayotgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'liqdir." [4.50] Dastlab kitobxon ayolning baxtsizligidan unga achinsa, bora-bora xudbinlashuvidan, yuqori mansabga erishish uchun har ishni qilishga roziligidan, unga ko'plab yaxshiliklar qilgan Jalolbekni oilasidan hamda mansabidan ajralishiga sabab bo'lganidan nafratlanadi. Ustozi va sirdoshi Hamida Hamidovnaning unga ishonib aytgan sirlarini keng ommaga sotganida ushbu obrazni yomon ko'rib qoladi. Ammo adiba obraz ruhiyatini shu qadar mahorat bilan tasvirleydiki, Nilufar tabiatidag bu xudbinlik, bag'ritoshlik iztirob chekkan paytlaridagi ko'zyoshlari bilan oqib ketmagan alamlar ekanligini, bu alamlar uni yuragida tosh bo'lib qotib qolganini va bular keyinchalik ayol ruhiyati o'zgarishiga sabab bo'lganini kitobxon anglab oladi. Zulfiya Qurolboy qizi Nilufar ruhiyatini ochishda keskin dramatik sahnalardan ko'ra, mayda psixologik detallar, ichki monolog va bilvosita tasvir vositalariga tayanadi. Bu esa obrazning hayotiyligini oshirib, kitobxonni qahramonning ichki olamiga chuqurroq kirib borishga majbur etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmatova Yulduz. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini dissertatsiyasi. -T.:2020
2. Zulfiya Qurolboy qizi. Oyimtilla. -T.: "Pir" nashriyoti.2025
3. Nevzat Tarxan. Ayol psixologiyasi. Bukhara books, 2025.
4. Quronov Dilmurod. Ruhiy dunyo tahlili. -T.: Xazina, 1995.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyotshunoslikda-badiiy-psixologizm-tushunchasi-va-masalaning-tarixi/viewer>